

“YUSUF VA ZULAYXO” ASARINING XALQ OG’ZAKI IJODIDAGI EPIK TALQINLARI

FarDU 3-kurs talabasi

Abdug’aniyeva Saboxatxon

Annotatsiya: Ushbu maqolada nafaqat sharq, balki butun dunyo tarixida mashhur, o’zining o’rniga, qadr-qimmatiga va mavqeiga ega bo’lgan, ulug’ bir shaxs Yusuf haqida yaratilgan, ya’ni yillar davomida xalq og’zaki ijodida paydo bo’lib, sayqallanib kelgan nodir namunalar va ularning qadr-qimmati haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Yusuf, Shoyusuf, quduq, Yamlixo, Yaslixo, Maksalmino, Bahrul-muhabba, “Kahf” surasi, “Javohir ul-hikoyat”, Maksimilian va Iamalixa.

Sharq adabiyotida, umuman olganda, Yaqin va O’rta Sharq, O’rta Osiyo, Qozog’iston va Volga bo’yi xalqlarining yozma va og’zaki ijodida keng tarqalgan, ma’lum va mashhur Yusuf haqidagi qissalarning ildizi, ya’ni kelib chiqishi arab adabiyotiga borib taqaladi. Arab adabiyotida Yusuf haqidagi hikoya va qissalarning paydo o’lishi bevosita Qur’oni karim tafsirlari ilan bog’lanadi. Yusuf haqidagi qissalarning arab adabiyotida mavjud bo’lgan namunalari haqidagi ilk ma’lumotlarni G’azzoliyning “Bahrul-muhabba” asarida uchratamiz. Bundan tashqari, Abdurahmon ibn Ali ibn Muhammad Abulfaroj Jamoliddinning “Qisasi Yusuf” nomli asar yozganligi ham ma’lum. 1284-yilda esa Abu Hafz Sirojiddin Umar ibn Ibrohim al-Ansoriy al-Avji al-Malikiy al-Muzakkir “Zehrul kiman fi-qissati Yusuf alayhissalam” nomli asari turkiy tilga Jalolzoda Mustafo Chalaiy tomonidan tarjima qilingan.

Arab adabiyotida Yusuf haqidagi badiiy talqinlar VIII asrda paydo bo’lgan bo’lsa, IX-X asrlarga kelib islomiy manbalar va uning tafsirlari asosida fors-tojik adabiyotiga kirib kelgan. Yusuf qissasi turkiy xalqlarning mumtoz adabiyotida ham o’zining nodir va betakror namunalariga ega bo’lib, ular rang-barangligi bilan bir-biridan farq qiladi. Sharq xalqlari orasida bunday qissalarga murojaat etish XIII asrlarga kelib boshlangan. Taniqli adabiyotshunos olim X.G.Koroglining ma’lumotlariga ko’ra, Turkiy xalqlar adabiyotida Yusuf mavzusiga bag’ishlab yozilgan asarlar soni qirqtadan ko’proq.

Yusuf va Zulayxoning muhabbati sarguzashtlariga bag'ishlangan syujet shu qadar keng tarqalganligi va mumtoz adabiyotda o'zining xilma-xil badiiy ifodasini topganligi sababli turkiy xalqlar adabiyotshunosligida bu asarlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan.

Yusuf qissasining g'oyat keng tarqalganligi sababli xalq og'zaki ijodida ham asar epik syujetining ayrim motiv va epiodlari asosida afsona va rivoyatlar vujudga kelgan. Xususan, folklorshunos olim T.Ochilov tomonidan Samarqanddan yozib olingan bir afsonada Yusuf va uning qizi ko'rgan tushning yo'rilishi haqida hikoya qilinadi. Bundan tashqari, xalq og'zaki ijodi namunalari hisolangan "yor-yor", "kelinsalom", "yo ramazon", lapar, o'lan kabilarning tarkibida ham Yusuf va Zulayxoning muhabbati, Ya'qubning o'g'li firoqida uning ko'ylagini quchib yig'lab ko'zlari ko'r bo'lgani, Yusufning akalari tomonidan quduqqa tashlanishi kabi motivlarni ko'rishimiz mumkin.

Yusuf bilan Zulayxo yor edilar, yor-yor,

Bir-birini ko'rmakka zor edilar, yor-yor.

Yuqoridagi parcha Xorazm vohasidagi nikoh to'ylarida aytiladigan "yor-yor" dan hisolanib, unda ayrim sabablarga ko'ra bir-birini diydoriga zor ikki oshiq, ya'ni Yusuf va Zulayho tasvirlangan. xuddi shu folklore namunasining keying baytlarida esa, Yusufning g'arazgo'y va hasadchi akalari tomonidan berilgan jao ya'ni qudduqqa tashlanganidan so'ng boshlangan voqea sabab musofirlikni boshidan kechirib Misrga borib qolishi va u yerda Zulayxo bilan uchrashuvi aks etadi:

Yusuf bilan Zulayxo ko'chdi bugun, yor-yor,

Musofirlik shahrina tushdi bugun, yor-yor.

Bunday motivlarning xalq og'zaki ijodi bilan qorishib ketishining asosiy sabablaridan biri, asar qo'lyomalari qissaxon otimlar tomondan kuylanishi yoki xalfalar repurtuarida yetakchi o'rinni egallaganligi bo'lishi ehtimoldan yiroq emas.

Yusuf alayhissalom haqidagi qissalarning motiv va epizodlari bilan bog'liq holatlarni "yo ramazon" qo'shiqlarida ham uhratish mumkin. Bunga misol qilib esa, 1989-yili M.Jo'rayev Buxoro viloyati Olot tumanida Qumkashn qishlog'ida yashovchi

1947-yilda tug'ilgan Hanifa momo Ortiq qizidan yozib olgan qo'shiqni keltirishimiz mumkin:

*Payg'ambarning o'n bir o'g'li bor edi,
Hammasidan Shoyusuf dildor edi.*

*Shoyusufni ovga olib chiqdilar,
Hohga tashlab bo'ri yedi dedilar.*

*Tog'dan och bo'rini yig'dirdilar,
Bo'rilar ont ichishi yig'ladilar.*

*Rabibon, yo rabibon, yo ramazon,
Muhammad ummatiga mohi ramazon!*

Endi Afg'onistonda yashovchi o'zeklardan yozib olingan namunaga qaraydigan bo'lsak unda, choh(quduq) yoniga Ya'qubning o'zi borgani va och bo'rilarni yig'ib ulardan so'ragani aks etganligi guvohi bo'lamiz. Undan tashqari, yana bir namunaga qaraganimizda esa umuman boshqa holat, ya'ni choh oldiga Yusufning onasi borgani va ko'z yosh qilganini guvohi bo'lamiz.

Yusuf haqidagi qissalar asosida nafaqat she'riy balki nasriy namunalar ham yaratilgan. Misol tariqasida Namanganda istiqomat qiluvchi A.Turg'unovdan yozib olingan ertakka nazar tashlaydigan bo'lsak ham, yuqoridagi folklor namunalaridagidan tudan farq qiluvchi motivlarga ko'zimiz tushadi. Unda, quduqqa tashlangan Yusufni ilonlar tashqariga chiqarib qo'yish motivi bor. Yusuf quduq ichida to'rtta ilon bilan to'qnashadi va bu ilonlarning nomi Yaxlimo, Maksimino, Misliino va Pirmush bo'lib, bu ilonlarning asosiy vazifasi quduqqa tashlangan insonlarni jazolashdan iborat. Bunga asosiy sabab bu quduqqa faqat yomon, jazoga loyiq insonlarning tashlanishi edi, ammo ilonlarning shohi bo'lgan Yaxlimo Yusufni ko'radi va endigina yeti yoshga kirgan bolada gunoh bo'lmasligini bilib uni ozod etadi.

Ushbu ertakdan o'rin olgan ilonlar motivining asosi Qur'oni karimdagi "Kahf" surasi asosida yaratilgan afsona va rivoyatlar hisoblanadi. "Javohir ul-hikoyat" asarida yetti birodar haqida hikoya keltiriladi. Ularning ismlari Yaslixo, Maksalmino, Kashfutat, Tabyunus, Kashofatyunus, Azarfatyunus, Yunusbuz bo'lib, ulardan Maksalmino va Yamlixo nasroniy adabiyotida mavjud Maksimilian va Iamalixa antroponimlarining variant hisoblanadi. Qolganlari esa xalq og'zaki ijodining namunasidir.

Yusuf va Zulayho haqidagi qissalar bevosita baxshilardan yoi olinmagan bo'lsada, uning bir nechta qissa sifatida chop etilgan variantlari borligi aniqlangan. Misol uchun, 2011-yili O.Mengliboyev tomonidan "Yusuf va Zulayxo" dostoni, Olim Ravshan tomonidan chop etilgan "Turkiy Yusuf va Zulayho" qissasi kabi variantlari bor.

"Yusuf va Zulayxo" dostonining xalq og'zaki ijodidagi epik talqinlari ushbu syujetning asrlar davomida xalq ongida qayta yaratilgan, milliy tasavvur bilan boyitilgan holda yashab kelayotgan kuchli badiiy an'anaga ega ekanini ko'rsatadi. Og'zaki epik an'anada doston syujeti diniy manbadan kelib chiqsa-da, xalq ijodkorlari uni milliy ruh, axloqiy qarashlar va hayotiy tajribalar bilan uyg'unlashtirib, o'ziga xos variantlar yaratgan. Talqinlarda Yusuf obrazining poklik, sabr, adolat ramzi sifatida, Zulayxo obrazining esa murakkab ruhiy kechinmalarni boshidan kechiruvchi inson sifatida tasvirlanishi xalqning ma'naviy ideallarini aks ettiradi.

Xalq dostonchiligi talqinlarida voqealar tizimi, obrazlar xarakteri, mo'jizaviylik, sinov va g'alaba motivlarining ustuvorligi ushbu syujetning epik tabiatini yanada mustahkamlaydi. Bu talqinlar o'zbek xalqining estetik qarashlari, ma'naviy qadriyatlari va badiiy tafakkurining tarixiy qatlamlarini mujassamlashtirgan holda, dostonni milliy epik merosning muhim qismi darajasiga ko'taradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nazokat Babajonova. “Yusuf va Zulayxo” dostoni syujetining genezisi va badiiy evolutsiyasi. Monografiya. –Toshkent: BOOKMANY PRINT, - 2024.
2. Валихўжаев Б. Узбек эпик поэзияси тарихидаН.-Тошкент, 1974.
3. Жўраев М. Узбек халк самовий афсоналари. - Тошкент:Фан,1995.
4. Жўраев М. Узбек халк эртакларида “сехрли” ракамлар. -Тошкент: Фан, 1991.
5. Жўраев М., Шомусаров ШП. Узбек мифологияси ва арабфольклори. - Тошкент: Фан, 2001.
6. Жўраев М., Саидова Р. Бухоро афсоналари. - Тошкент:А.Кодирий номидаги халк мероси нашриёти, 2002. .
7. Жўраев М., Расулова З. Миф, маросим ва эртак. -Тошкент:Мумтоз сўз, 2014.
8. Рўзимбоев С. Халк ижодининг ноёб дурдоналари //Ошикнома. 6-китоб. - Урганч: “Хоразм” нашриёти, 2013.
9. Санаев И. XIX асрнинг иккинчи ярми ва XX асрнингбошларида Зарафшон водийси адабий мухити. - Тошкент. 2001.
10. Сафарова Х. Хазрати Юсуф - гўзаллик тимсоли. -Тошкент: Ислом университети нашриёти, 2003.
11. Тохиров К. “Халк кассаси “Юсуф ва Зулайхо”нинг матнива тадқиқи. - Самарканд, 2001. - 139 6.12.Хоразм хазинаси. - Урганч, 1996.
12. . Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари.1. - Тошкент, 1961. - 3466.